

**ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HUDUDLARIDA TA'LIM SIFATI
VA DARAJASI**

Qushmatova Madina Valijonovna
Ashirova Noila Xasanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Chor Rossiyasi Turkiston o'lkasini o'z mustamlakasiga aylantirgan XIX asrning ikkinchi yarmida o'lkaning ijtimoiy-madaniy hayotida albatta ba'zi bir ijobiy o'zgarish va yangiliklar ham bo'ldi. Bu o'zgarishlar va yangiliklar mustamlakachilar tomonidan yerli xalqlarning talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida ro'yobga chiqarilgani yo'q. Balki, birinchi navbatda va asosan bosqinchilarning talablari va manfaatlari nuqtayi nazaridan amalga oshirildi. Ana shunday yangilik va o'zgarishlardan biri o'lkada aholiga xizmat qiluvchi madaniy-ma'rifiy muassasalarining paydo bo'lishidir. Rossiya imperiyasi o'rta osiyo xonliklariga bosqini davomida xonliklarda ta'lim sifati umuman past ekanligi va talab darajasiga javob bermasligi haqida ko'r bong urishdi. Ushbu maqolada bu ma'lumotlar qanchalik to'g'riliqi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, jadid mакtablari, Turkiston, jadid, savodxonlik , "Muzaffariya" mакtabi, To'qmoq, Shohi Zinda

**КАЧЕСТВО И УРОВЕНЬ ОБРАЗОВАНИЯ В СРЕДНЕАЗИАТСКИХ РЕГИОНАХ В
ПЕРИОД НАШЕСТИЯ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ**

Кушматова Мадина Валижоновна

Студент Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация: Во второй половине XIX века, когда царская Россия сделала Туркестанский край своей колонией, в социально-культурной жизни края, безусловно, произошли и некоторые позитивные изменения и нововведения. Эти изменения и нововведения не были реализованы колонистами с целью удовлетворения потребностей и потребностей коренных народов. Возможно, это было сделано в первую очередь и в основном с точки зрения требований и интересов захватчиков. Одним из таких нововведений и изменений стало появление в стране культурно-образовательных учреждений, обслуживающих население. Во время вторжения Российской империи в среднеазиатские ханства было много разговоров о том, что качество образования в ханствах в целом низкое и не соответствует уровню спроса. Эта статья расскажет о том, насколько точна эта информация.

Ключевые слова: система образования, Джадидские школы, Туркестан, Джадид, грамотность, школа Музффариа, ткачество, Шахи Зинда.

**THE QUALITY AND LEVEL OF EDUCATION IN THE REGIONS OF CENTRAL ASIA
DURING THE INVASION OF THE RUSSIAN EMPIRE**

Gushmatova Medina Valijonovna
Student of Chirchik State Pedagogical University

Annotation: *In the second half of the XIX century, when Tsarist Russia turned the Turkestan land into its colony, there was certainly some positive change and news in the socio-cultural life of the country. These changes and innovations were not realized by the colonists in order to meet the demands and needs of the indigenous peoples. Perhaps it was carried out primarily and mainly from the point of view of the requirements and interests of the invaders. One such innovation and change is the emergence of cultural and educational institutions serving the population in the country. During the Russian Empire's invasion of Central Asian khanates, the khanates were hit a lot by the fact that the quality of education was generally low and did not meet the level of demand. This article will talk about how accurate this information is.*

Keywords: *education system, jadid schools, Turkistan, jadid, literacy, Muzaffariya school, bat, Shahi Zinda .*

Mustaqil O'zbekistonimizda bugungi kunda jahon ta'lif standartlariga javob beruvchi, tanqidlar va muhokamalar asosida shakllangan, rivojlangan davlatlar tajribasi qo'llash orgali vujudga kelgan ta'lif tizimimiz mavjud. Ushbu ta'lif tizimini yaratishda va hozirgi holatga kelishida, albatta milliy o'zligimiz, xalqimizning fikri, mentalitetimiz va muqaddas dinimiz ham hisobga olingan. Va biz bu ta'lifdan faxrlansak arziydi. Xo'sh, mana shunday sinovlarda toblanib turli baxs-munozalarda o'tib biz ko'rib turgan holatga kelguncha ta'lif tizimi qay holatda bo'lgan. Xususan, xalqimiz eng og'ir sinovlarni boshidan o'tkazgan Rossiya mustamlakachiligi o'rnatilgan davrda qay holatda bo'lgan ekan?

Chor Rossiyasi bosqiniga qadar Turkistonda keng tarmoqli xalq maorifi o'choqlari: maktablar va madrasalar mavjud edi. Bosqinchilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilikning bundan keyingi taqdiri uchun mакtab va madrasalarning g'oyatda xavfli ekanligini tushunib yetgandilar. Shu boisdan ham chorizm o'lkada ruslashtirish siyosatini ishlab chiqadi. O'sha pixini yorgan siyosatchi K.P.Kaufman bu sohada ayniqsa jon kuydirib faoliyat ko'rsatadi. Chor Rossiyasi ma'murlarining Turkiston o'lkasida yerli xalq vakillarini qorong'ilik zulmat va zabunlikda saqlashga qaratilgan mustamlakachilik va zo'rlik siyosatiga qaramasdan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida o'lkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolgan emas.

Ismoilbek Gaspirali 1893-yilda Toshkent, Samarcand va Buxoroda bo'lib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi va yangi ochilgan mакtabga "Muzaffariya" nomi beriladi. 1898-yilda To'qmoqda (Qirg'iziston) ham shunday mакtab ochiladi. 1899-

yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari o'z, maktablari uchun darsliklar yaratgan. Xususan, Saidrasul Aziziy "Ustozi avval" (1903), Abdulla Avloniy "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912) darsliklarini yaratdi. Yangi usuldagagi maktablar uchun "Adibi avval" nomli darslik 1907-yilda Toshkent jadidlarining otasi Munavvarqori tomonidan yaratilgan. Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o'z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqichlarga qarshi nafrat, milliy istiqlolga oshonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo'ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g'oyasini millatlararo tenglik va qon qarindoshlikni targ'ibot qilishni to'g'ri yo'lga qo'yadilar. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo'lib, Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi. Rossiyada aholining umumiyligi soni – 126.388.800, maktablar soni – 33.401, o'quvchi soni – 2.318.100, aholining umumiyligi soniga nisbatan o'quvchilar – 1,8 foizni tashkil etgan holda, aholining savodxonligi – 21 foiz; Belorussiyada aholining umumiyligi soni – 6.492.857, maktablar soni – 2.263, o'quvchilar soni – 125.418, aholining umumiyligi soniga nisbatan o'quvchilar – 1,9 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi – 24,7 foiz; Turkistonda aholining umumiyligi soni – 3.792.774, maktablar soni – 6.027, o'quvchilar soni – 64015, aholining umumiyligi soniga nisbatan o'quvchilar – 1,7 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi – 19,55 foiz bo'lgan.

Bu davrda ayrim olimlar vatanga, o'z xalqiga xiyonat qilgan va bosqinchiligi Rossuya hukmdorlari tomoniga o'tgan Saidazimboy singari savdogarlarni Toshkentda o'z uyida rus-tuzem maktabi ochdi deb osmonga ko'tarib maqtaydilar. Aslida esa rus-tuzem maktablari asosan tilmochlar - tarjimonlar tayyorlashga mo'ljalab tashkil etilgan edi.

Ammo sovet davrida bu kabi da'volarni inkor etuvchi xolisona tadqiqotlar ham e'lon qilinadi. Tarixchi olim Pyotr Geronovich Kim "Uydirma va haqiqat" maqolasida o'zimizdan chiqqan "olimlar"ga qonuniy savol bilan murojaat qiladi:

Xo'sh, savodsiz xalq butun dunyo xalqlarining faxru-iftixoriga aylangan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va Xivadagi Go'ri Amir, Shohi Zinda, Bibixonim kabi koshonalarni va boshqa ko'plab asori-atiqalarni qanday qilib bunyod etgan ekan? Savodsiz xalq qanday bilan jahonga Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi olamga mashhur allomalarni yetkazib berdi ekan? Savodsiz xalq Navoiy, Ulug'bek, Jomiy va boshqa ko'plab olimlarni olamga taratganining siri nimada? Furqat, Muqimiy, A.Avloniy, M.Behbudiy kabi minglab ma'rifatparvarlar bo'lgan xalqqning savodsizligiga ishonish mumkinmi?

O'sha davr Turkiston o'liasi siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li Turkistondagi siyosiy vaziyatni quyidagicha tasvirlaydi: "Jami fe'lizim , yurushimiz , turushimiz , so'zlongan so'zimiz , maktab va madrasalarimiz va usuli ta'llim va tadrismiz va axloqimiz buzuqluqdadur . Yana besh - o'n yil bu taddaniymizda davom etsak ,

mutaraqqiy millatlarini oyog'ini ostida ezilib mahv va parishon o'lmaq paydo bo'ladi . Ey dindoshlar , voy vatandoshlar ! Kelaylik , insof etaylik , oz holimizni boshqa mutaraqqiy millatlar holiga muvozana qilaylik , to o'z tasavvurotimiz o'zimizg'a bilmushohida ma'lum olub , islohg'a sa'y va harakat etaylik. O'zimizdan so'ng kelodurg'on avlodlarimiz uchun foydalik yo'llar ochib, alarni boshqa millatlarg'a qul va xodim bo'lishdan xalos etay lik. Bizni bu g'aflat va jaholatimizdan yovrupalilar istifoda etub qo'limizdan hukumatimizni olg'onlari kabi kasb va tijoratimizni ham ohista - ohista olmakdadur . O'zimiz va millatimiz va avlodimizni muhofazati uchun tezdan ahvolimizni islohog'a sa'y va g'ayrat qilmasok, istiqbolimiz nihoyatda mushkildur. Ahvolimizni islohi esa zamong'a muvofiq ulumu fununni tahsilig'a tezdan shuru qilmoq ila vujudga kelur. Zamona ulumu fununlaridan xabardor o'lmoq esa maktab va madrasalarimizni va usuli ta'lim va tadrislaramizni islohog'a mavqukdir " .

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'rta Osiyo xonliklarida Chor Rossiyasi istilosiga qadar ham undan keyin ham ta'lif tizimi sifati yaxshi darajada bo'lgan. Ayrim sohalarda va fanlarda oqsash hollari ko'zatilganligini tan olishdan o'zga choramiz yo'q. Masalan, aniq va tabiiy fanlardagi ta'lif tizimi o'rta asr mualliflari asarlarini o'rganish bilan chegaralangan, yangilik kiritilmagan. Lekin bu butunlay to'xtab qolganligini anglatmaydi . Ammo ijtimoiy-gumanitar fanlar anchagina yaxshi rivojlangan edi. Hamda Chor Rossiyasi istilosidan keyin ham O'rta Osiyo hududida milliy mafkuradan uzoqlashmagan holdagi ta'lif tizimi vujudga keldi. Barcha o'lkalarda , xususan, Turkiya, Afg'oniston, Eron hududlarida shkllanganligidagi kabi Turkiston o'lkasida ham jadidchilik oqimi keng yoyildi va bu davrni o'z davri talab va ehtiyojidan kelib chiqqan kichik bir renessans darajasiga ko'tarsak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari); K.2.: /Mualliflar: "Sharq", 2010,
2. Sodiqov. R.Shamsutdinov. P. Ravshanov. Usmonov O'zbekistonning yangi tarixi.Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. "Sharq" 2000.253–277-betlar
- 3.Karimov. Sh., Shamsutdinov R. Turkiston Russiya bosqini davrida. Andijon. 1995. 90—159-betlar.
4. Xolid.A O'zbekiston tavalludi. Toshkent:"Akademnashr" ,2022.